XALQ DEPUTATLARI ZARBDOR TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 30 - dekabr VI-60-161-3-49-K/23 Zarbdor tuman hokimligi

Zarbdor tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar hamda mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2024-yilga belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi PF-6121-sonli “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasi hamda 437-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi “Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan 2024-yil uchun Zarbdor tumanida belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslarni mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar uchun 2024-yilga yer solig‘i stavkalarini tasdiqlash bo‘yicha xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi “Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-6121-sonli farmoni va tuman soliq inspeksiyasining 2023-yil 23-dekabrdagi 04357-sonli axborotnomasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429-moddasiga muvofiq Zarbdor tumani uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffisiyentlar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 437-moddasiga muvofiq mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yer uchastkalariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) bo‘yicha mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffisiyentlar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi, yuqorida 1-2-ilovalar bilan belgilangan soliq stavkalariga 0,7 dan 3,0 gacha bo‘lgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffisiyentlarni belgilash huquqiga egaligi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi F.Hamzayev, tuman iqtidiyot va moliya bo‘limi (B.Ahmedov), tuman soliq inspeksiyasi (B.Qulmatov) larga 2024-yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Zarbdor” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Murodov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi F.Hamzayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **З.Рузиев**

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-60-161-3-49-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘lajallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffisiyentlar

№	Hududlar	Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan 1 gektar uchun bazaviy soliq stavkasi, vky so'mda	Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koyeffisiyent *(0,7-3,0)*		MFY lar kesimida 1 gektar uchun yer solig‘i, mln.so‘mda
			Kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	Mustaqillik MFY	41,04	0,90		36,93
2	Oybek MFY	41,04	0,90		36,93
3	Nurobod MFY	41,04	0,90		36,93
4	Tinchlik MFY	41,04	0,90		36,93
5	Oqbuloq MFY	41,04	0,90		36,93
6	Ravot MFY	41,04	0,90		36,93
7	Navoiy MFY	41,04	0,90		36,93
8	Yangixayot MFY	41,04	0,90		36,93
9	Lalmikor MFY	41,04	0,90		36,93
10	Toza-urug‘ MFY	41,04	0,90		36,93
11	Yangiobod MFY	41,04	0,90		36,93
12	Sharq Yulduzi MFY	41,04	0,90		36,93
13	Shodlik MFY	41,04	0,90		36,93
14	Taraqqiyot MFY	41,04	0,90		36,93
15	Do‘stlik MFY	41,04	0,90		36,93
16	Navro‘z MFY	41,04	0,90		36,93
17	Adirobod MFY	41,04	0,85		34,88
18	Toshkesgan MFY	41,04	0,85		34,88
19	Yangikent MFY	41,04	0,82		33,65
20	Nurafshon MFY	41,04	0,82		33,65
21	Andijon MFY	41,04	0,85		34,88
22	Oqar MFY	41,04	0,82		33,65
23	Navbohor MFY	41,04	0,82		33,65
24	Yoshlik MFY	41,04	0,82		33,65

Xalq deputatlari Zarbdor tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-60-161-3-49-K/23-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koyeffisiyentlar

№	Hududlar	Soliq kodeksining 437-moddasiga asosan 1 kv.m uchun bazaviy soliq stavkasi, so‘mda	Xalq deputatlari Zarbdor tuman Kengashi tomonidan qo‘llanilgan koyeffisiyent (0,7-3,0)		MFY lar kesimida 1 kv.m. uchun yer solig‘i, so‘mda
			Kamaytiruvchi	oshiruvchi	
1	Mustaqillik MFY	326,4	0,78		254,59
2	Oybek MFY	326,4	0,78		254,59
3	Nurobod MFY	326,4	0,78		254,59
4	Tinchlik MFY	326,4	0,78		254,59
5	Oqbuloq MFY	326,4	0,78		254,59
6	Ravot MFY	326,4	0,78		254,59
7	Navoiy MFY	326,4	0,78		254,59
8	Yangixayot MFY	326,4	0,78		254,59
9	Lalmikor MFY	326,4	0,77		251,32
10	Toza-urug‘ MFY	326,4	0,78		254,59
11	Yangiobod MFY	326,4	0,78		254,59
12	Sharq Yulduzi MFY	326,4	0,78		254,59
13	Shodlik MFY	326,4	0,76		248,06
14	Taraqqiyot MFY	326,4	0,76		248,06
15	Do‘stlik MFY	326,4	0,77		251,32
16	Navro‘z MFY	326,4	0,77		251,32
17	Adirobod MFY	326,4	0,77		251,32
18	Toshkesgan MFY	326,4	0,76		248,06
19	Yangikent MFY	326,4	0,76		248,06
20	Nurafshon MFY	326,4	0,75		244,8
21	Andijon MFY	326,4	0,76		248,06
22	Oqar MFY	326,4	0,76		248,06
23	Navbohor MFY	326,4	0,76		248,06
24	Yoshlik MFY	326,4	0,76		248,06